

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI
FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohalari: 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq
Ta'lim sohalari: 410 000 - Biznes va boshqaruv
Mutaxassisligi: 70410102 - Iqtisodiyot

Fan/modul kodi ITM1105	O'quv yili 2024-2024	Semestr I	Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy fanlar	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 5	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklama (soat)
Ilmiy tadqiqot metodologiyasi		74 30 m. / 44 a.	150

I. Fanning mazmuni

Ushbu kurs umum metodologik fanlar qatoriga kirib, magistrantlarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani, uning mazmun - mohiyati, fanni o'qishdan maqsad hamda kelgusida ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun nazariy va amaliy bilim hamda ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan. Kursning asosiy mazmunini ilmiy tadqiqotni olib borishning zaruriyati, ilm-fanga qo'shadigan hissasi, ilmiy hamjamiyatlarining o'zaro hamkorligi, fanlardagi innovatsiyalarni tanishtirishdan iborat.

Ushbu kurs ilmiy tadqiqot metodologiyasining an'anaviy mavzularini o'z ichiga oladi. Masalan, ilmiy tadqiqot hisobotlarining turlari; qisqa hajmli va katta hajmli hisobotlar, magistrlik dissertatsiyasini yozish tartibi, ilmiy maqola yoki tezis yozish tartibi, ilmiy ma'ruza tuzilishi va taqdimot qilish xususiyatlari. Havolalarni kiritish tartibi va adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish va hokazolar.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi kursi talabalarga oldingi o'qish jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirish, tizimlashtirish, mustahkamlash va amaliyotda qo'llashda yordam beradi. Mazkur kurs magistratning barcha yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari va strategiyasini aniq tushunishni talab qiladi. Talabalar samarali ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun, tadqiqot usullaridan o'z o'rnida va samarali foydalanishi zarur bo'ladi.

Fanning vazifasi - magistratura talabalarini ilmiy tadqiqotning asosiy tushunchalari; ilmiy usullarga qo'yilgan talablar; ilmiy tadqiqot usullari va bosqichlari; ilmiy axborot va uni izlash; eksperimental tadqiqotlar; ilmiy tadqiqotlarning joriy etilishi va samarasi; ilmiy tadqiqot ishlarini rasmiylashtirish tartibi; ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash va ilmiy-falsafiy mushohada qilishga o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-mavzu. O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti

"Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi" fanining predmeti, metodi va vazifalari. Fanning asosiy maqsadi va uni talqin etish tartibi. Fanning ishlab chiqarishdagi o'zmi. Fan metodologiyasining maqsadi. Ilmiy tadqiqotning

umumfalsafiy, umumilmiy metodlari: tahlil va sintez, induksiya va deduktiya, abstrakshtiyalashtirish, abstraktlik. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tamoyillari va xususiyatlari. Tadqiqotni rejalashtirish va o'tkazish uslublari. Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalardan foydalanish.

2-mavzu. O'zbekistonda fan taraqqiyotining qonuniy asoslari va ularning mazmun mohiyati

Kadrlar tayyorlash milliy modeli. O'zbekistonda ilm-fan: qadimiy an'analar va bugungi kunda yaratilgan shart-sharoitlar, Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar davlat attestatsiyasi. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar davlat attestatsiyasining natijalari. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini islox qilish. O'zbekistonda fan taraqqiyotining qonuniy asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va uning mohiyati, mazmuni.

3-mavzu. Ilm-fan, ilmiy tadqiqot tushunchalari va maqsadlari

O'zbekistonda fanning tashkiliy tuzilishi. Ilm-fan haqida tushuncha, ilmiy faoliyat. Fanning asosiy xususiyatlari. Ilmiy tadqiqot va uning maqsadi. Metod va metodologiya. Ilmiy pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash. Ilmiy jamoaviy tashkilotlar. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tashkiliy tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Ilmiy tekshirish institutining vazifalari. Institutlarda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish. Fanlar akademiyasi, akademiklarining huquq va majburiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Fan va texnologiyalar agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ilm-fanni rivojlantirish va uni boshqarishdagi ahamiyati.

4-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlari.

Ilmiy tadqiqot metodlarining turlari. Empirik tadqiqot usullari. Empirik-nazariy tadqiqot metodlari. Nazariy tadqiqot metodlari. Metodikasi ilmiy jihatdan asoslash. Reja-dasturni tuzishdan oldin vazifalarni yechish metodlari. Ilmiy kuzatish komponentlari. Ilmiy kuzatish metodi. Ijtimoiy fandagi kuzatish metodi. Qiyoslash usuli. Hisoblash bilan o'lbosh miqdoriy ma'lumot olishning asosiy metodlari. Taxlil va sintezning empirik, gumanitar-nazariy va tuzilmali-genetik usullari. Modellashtirish usulida tadqiqot ob'ektining asosiy xossalari.

Axborot, bilim, ilm tushunchalari. Ilmiy daraja va unvonlar tavsifi. Ilmiy bilish tushunchasi. Ilmiy bilishning shakllari. Nazariy va empirik tadqiqot usullari. Ilmiy ijodkorlik metodologiyasining nazariy asoslari. Muammo, gipoteza, nazariya, g'oyalar, tamoyillar, kategoriya hamda qonuniyatlar. Nazariyaning muhim elementlari-tamoyil va qonuniyatlari. Tabiiy ilmiy bilish metodlari. Ilmiy tadqiqotning asosiy metodlari: tajriba, sinov, kuzatish, induksiya, deduktiya, intuitsiya. Faraz. Dalil.

5-mavzu. Ilmiy bilishning metodologik asoslari.

Ilmiy bilishning nazariy pog'onasi. Nazariy tadqiqotlarning bosqichlari. Axborot, bilim, ilm tushunchalari. Ilmiy daraja va unvonlar tavsifi. Ilmiy bilish tushunchasi. Ilmiy bilishning shakllari. Nazariy va empirik tadqiqot usullari. Ilmiy ijodkorlik metodologiyasining nazariy asoslari. Muammo, gipoteza, nazariya, g'oyalari, tamoyillar, kategoriya hamda qonuniyatlar. Nazariyaning muhim elementlari-tamoyil va qonuniyatlar. Tabiiy ilmiy bilish metodlari. Ilmiy tadqiqotning asosiy metodlari: tajriba, sinov, kuzatish, induksiya, deduktiya, intuitsiya. Faraz. Dalil.

6-mavzu. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini tanlash va ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari

"Ilmiy-tadqiqot" tushunchasi. Ilmiy yo'nalish. Ilmiy muammo, ilmiy mavzu. Ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tanlash. Mavzuning samaradorligini baholash. Ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari. Muammoning dolzarbligi, uning fan va texnikani rivojlantirishdagi ahamiyati. Muammoning strukturasi. Ilmiy mavzuga quyiladigan talablar. Fundamental tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash mezonlari. Amaliy tadqiqotlarning dolzarbligi asoslash. Iqtisodiy samaradorlik va ahamiyatlilik darajasi. Mavzu dolzarbligini asoslashda ikkilamchi va birlamchi axborot manbalaridan foydalanish.

7-mavzu. Ilmiy axborotlarni qidirish, to'plash, qayta ishlash va yozish qoidalari

Axborot fan sifatida. Ilmiy hujjatlar va nashrlar. Ilmiy axborotlar tizimi. Davlatning patent axborot tizimi. Ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni tashkil etish. Adabiyotni to'plash va tahlil etish. Kitoblar (darsliklar, o'quv yo'llanmalar, monografiyalar, broshyuralar).

Davriy matbuot (jurnallar, byulletenlar, institutlarning ilmiy ishlari, ilmiy to'plamlar). Me'yoriy hujjatlar (standartlar, andozalar, texnikaviy shartlar, yo'riqnomalar, me'yoriy javdallar, muvaqqat ko'rsatmalar va b.).

Katalog va preyskurantlar. Patent hujjatlari. Ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy konstruktorlik ishlari haqidagi hisobotlar. Axborot nashrlari (ITI to'plamlari, analitik sharhlar, axborotli varaqalar, ekspress axborotlar, ko'rgazmalarning prospektlari va b.). Xorijiy ilmiy-texnikaviy adabiyotlarning tarjimai va asl nusxalari. Dissertatsiyalar, avtoreferatlar. Ilmiy-texnikaviy anjumanlar va ishlab chiqarish yig'ilishlarining ilmiy-texnikaviy materiallari. Ikkilamchi hujjatlar (referativ sharhlar, bibliografik kataloglar, referativ jurnal va b.).

8-mavzu. Nazariy tadqiqotlar

Ilmiy nazariya tushunchasi. Nazariy tadqiqotlarning usullari va vazifalari. Ilmiy tadqiqotlarda matematik usullardan foydalanish. Analitik usullar. Statistik-extimoliy usullar. Tahlil va sintez. Deduktiya va induksiya.

Modellashtirish. Modellashtirishning tuzilmasi. Gipotetik usul - gipotezani ishlab chiqish. Tarixiy metod. Ideallashtirish. Aksiomatik metod.

Abstraktiyalash metodi. Formatlashtirish. Nazariy tadqiqotlarning birinchi bosqichi. Nazariy tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi. Nazariy tadqiqotlarning uchinchi bosqichi.

9-mavzu. Eksperimental tadqiqotlar.

Eksperimentlarning turkumlanishi, turlari va vazifalari. Eksperimental tadqiqotlarning metrologik ta'minoti. Eksperiment tadqiqotlarning reja-dasturi. Eksperimentni o'tkazish. Eksperimentni o'tkazishning mazmun va tartibi. Eksperiment o'tkazuvchining ish joyi va uni tashkil etish. Eksperimental ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish. Eksperiment o'tkazish sifatiga psixologik omillarning ta'siri. Eksperiment natijalarini hisoblash.

10-mavzu. Eksperimental tadqiqot natijalarini qayta ishlash

O'Ichashlar natijalarini grafik tasvirlash. Empirik formulalarni tanlash. Nazariy-eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish. Hisoblash eksperimenti.

Tasodifiy xatolarning nazariy asoslari va tadqiqotdagi tasodifiy xatolarni baholash usullari. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullari. Iqtisodiy matematik modellarni tanlash usullari. Regression tahlil. Olingan nazariy natijalarni baholash. Tadqiqotni rejalashtirish nazariyasi elementlari.

11-mavzu. Ilmiy tadqiqot va ijod tizimida dalil

Dalil falsafiy kategoriya sifatida. Dalil turlari. Dalilning ilmiy tadqiqotdagi o'rni va ahamiyati. Dalil sub'ekt va ob'ektning faolligi natijasi sifatida. Dalillarni qo'lga kiritish vosita va bilvosita bo'lishi. Moddiy olam oddiy bilim asosi. Dalillar farazlarni tahlil qilish. Jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslari. Ilmiy tadqiqotda dalil to'plash usullari. Ilmiy tadqiqotda dalilning vazifalari. Dalillarni nisbiy hamda mutlaq dalillarga bo'lish yo'li. Dalillar to'plash fan nuqtai nazarida cheksizligi. Sub'ekt va ob'ekt falsafiy kategoriya sifatida. Sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'siri.

12-mavzu. Ilmiy kadrlarni idroki va zexni.

Olimlarga bo'lgan kasbiy talablar. Zehn va idrok belgilari. Jamoaviy zexn-idrokning tashkil etish tamoyillari Ilmiy jamoa. Ilmiy jamoada ilmiy xodimlarga ismi taqsimlash. Ilmiy jamoani boshqarishning asosiy tamoyillari. Ilmiy seminarlarni tashkil etish. Ilmiy jamoani shakllantirish usullari. Rahbar va xodimning o'zaro munosabatlarining psixologik jihatlari. Ilmiy jamoada nizolarni hal etish. Ilmiy jamoada olingan ilmiy natijalar samaradorligini baholash. Ilmiy jamoaning ishini attestatsiyadan o'tkazish.

13-mavzu. Ilmiy prognoz qilish ijodiy jarayon sifatida

Ilmiy bilishda prognoz qilishning o'rni. Fanda bashorat ijod shakli sifatida. Iqtisodiy tadqiqotlarda ilmiy ijod va bashorat metodologiyasidan foydalanish. Bilishning ijodiy faolligi. Insoniyatning hamisha kelajakni

bashorat qilishga ehtiyoj sezishi. Prognozlarining aniqlik darajasi, Fanning prognostik funksiyasi. Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishini ilmiy prognoz va bashorat qilish. Ilmiy bilimning barcha shakllari, usullari va vositalaridan foydalanib fanda ilmiy bashorat qilish. Uzoq muddatli prognoz qilish mamlakat iqtisodiyotini rejalashtirish va boshqarish bo'yicha strategik vazifalarni olis istiqbolga belgilash. Ijtimoiy hodisalarni prognoz qilish shakllarini taqqoslash boshqaruvning samaradorligini oshirish. Iqtisodiy bashoratlash usullari. Bashoratlashning faktografik (statistik analogiya) usullari.

14-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha umumiy tushuncha. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining tanlanishi va ifodalanishi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi, yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilash. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmetini asoslash. Magistrlik dissertatsiyasi natijalarining amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasi ning tuzilishi va asosiy bo'limlari mazmuni. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar. Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi va uni tashkil etish.

15-mavzu. Magistrlik dissertatsiyasini tuzilishi, rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar va himoyani tashkil etish

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va asosiy bo'limlari mazmuni. Magistrlik dissertatsiyasini yozish va rasmiylashtirishning asosiy qoidalari. Magistrlik dissertatsiyasining himoyaga tayyorlash tartibi va himoya qilish. Magistrlik dissertatsiyasi ning tuzilishi. Muammoning ishlab chiqilganlik darajasi. Magistrlik dissertatsiyasining amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan asosiy talablar. Materialning aniq va izchil bayon qilinishi. Foydalanilgan manbalarni bayon qilish qoidalari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining o'rganish sohalarini.
2. Fanning funktsiyalari. Ilmiylik mezonlari.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda fanning vazifalari.
4. Ilmiy maktab va uning rivojlanish tendentsiyalari. Metodlarning tasnifi.
5. Iqtisodiyot ilmiy maktablari va ularning mashhur namoyondalari.
6. Ilmiy tadqiqot namoyon bo'lishining asosiy jihatlari: erkinlik, yozma matn (tezis, maqola, monografiya).
7. Gipoteza. Kontseptsiya. Nazariya. Qonun. Paradigma. Tizimlilik. Sinergetika.
8. Novatsiya, innovatsiya, kashfiyot va ixtirolar.
9. Tushuntirish va uning modellari. Germenevtika.

10. Innovatsiya va uning o'ziga xos xususiyatlari. Kashfiyot va ixtirolar.

11. Axborot, bilim, ma'lumot tushunchalari. Jamiyat taraqqiyotida axborot rolining oshib borishi.

12. "Raqamli O'zbekiston-2030", "Elektron hukumat", "Raqamli iqtisodiyot" dasturlarining mohiyati.

13. O'zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasi.

14. Ilmiy tadqiqot natijalarini chop etish usullari.

15. Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda maqolalarni chop etish yo'llari va usullari.

16. Magistrlik dissertatsiyasi tuzilishi va mundarijasini shakllantirish.

17. Dissertatsiyani rasmiylashtirish qoidalari va Dissertatsiya himoya qilish tartib-tamoyili.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan topshiriqlar:

Iqtisodiyot ilmiy maktablari.

2. Iqtisodiyot sohasidagi Nobel mukofoti sovrindorlari.

3. Muammoni qo'yish ilmiy tadqiqotning bosh omili.

4. Ilmiy izlanish tushunchasi va uning ilmiy faoliyatdagi roli.

Mustaqil o'zlashtiriladigan topshiriqlar bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Inson hayot faoliyatida, jamiyat rivojida ilm-fanning beqiyos rolini tushunish, ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda metod va metodologiyaning rolini anglash, ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda muammoni to'g'ri qo'yish va uning echimini topish texnologiyasini egallash, Axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruriyatini *anglash*.

"Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fani masalalari doirasida magistrant:

- ilmiy tadqiqot olib borishning metodologik asoslari, zaruriy shartlari, ilmiy izlanishga xos asosiy tushunchalar, ilmiy tadqiqotning mantiqiy tuzilmasi, mavzuni tanlash bosqichlari, tadqiqot rejasini tuzish, ilmiy bilishda umumiy va xususiy metodlar, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish, fanning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy tadqiqotning amal qilish mexanizmlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, tadqiqot strukturasi bilishi va ulardan *foydalanish*;

3.

<p>- tadqiqot jarayonini tasvirlash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, ilmiy tahlil qilish, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotning metodologik tamoyillari, ilmiy loyihalarni tuzish, ilmiy izlanishlarning yo'nalishlarini aniqlay olish, olimning ahloqiy fazilatlarini o'zida shakllantirish <i>haqidagi ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</p> <p>-bilimning konstruktiv xarakteri, ilmiy faoliyat mahsulining amaliy ahamiyatini anglash, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va ularga havola berish usullari, mavzuni yoritish uchun matndan daliliy misollar tanlash, ularning miqdorini belgilash, qo'lyozmani tahrir qilish, ilmiy ishni ilmiy-mantiqiy uslubda ravon va savodli yozish <i>malakalariga ega bo'lishi lozim</i>.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar, • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish.
<p>5.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish topshirish..</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1 Saifnazarov I. Muxtorov A. Sultonov T. Ernazarov D. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: "Iqtisodiyot", 2019.-156 b.</p> <p>2 Saifnazarov I. Muxtorov A. Boboev A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: "Iqtisodiyot", 2014.-136 b.</p> <p>3 Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. -T.: Axborot texnologiyalari. 2014. - 450 b</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4 Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Xalq so'zi, 2019 yil 30 oktyabr.</p> <p>5 Research Design: Quantitative, Qualitative, Mixed Methods, Arts-Based,</p>
<p>6.</p>	

<p>and Community-Based Participatory Research Approaches. Patricia Leavy. THE GUILFORD PRESS. New York London. 2017, 320 p.</p> <p>6 How to Write and Publish a Scientific Paper. Eighth Edition. Barbara Gastel and Robert A. Day. Library of Congress Cataloging-in-Publication Data. 2016. 346 p.</p> <p>7 Мокшй М.С. Методология научных исследований: учебник для магистратуры. – М.: Издательство Юрайт, 2015. -255с. – Серия: Магистр.</p> <p>8 Базилевич В.Д. Экономико-философская мысль современного мира/В.Базилевич, В.Ильин. – К.: Знання, 2015. -821с.</p> <p>9 Iqtisodchi olimlar. (Tuzuvchilar: X.Abulqosimov, T.Jo'raev).T.: 2016.- 336 b</p> <p>10 В.В.Заводский. Философия и методология инновационного процесса. Инновационная экономика. ИННОВАЦИИ, № 7 (153), 2011</p> <p>11 Болдырев И.А. Экономическая методология сегодня: краткий обзор основных направлений. Методология экономических исследований. Проблемы экономической теории. 2011, №9, стр.47-70</p> <p>12 Саифназаров И., Никитченко Г.В., Қосимов Б.У. Илмий изод методологияси. Ҷува кўланма. -Т.: "Янги аср авлоди", 2004.-200 б.</p> <p>13 Саифназаров И., Никитченко Г.В., Қасымов Б.У. Методология научного творчества. Учебное пособие. -Т.: "Янги аср авлоди", 2004. - 200 С.</p>	<p>7. Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
<p>8. Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>O.Aripov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, i.f.d. DSc.</p> <p>E.Jurayev – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.f.d. PhD.</p> <p>Sh.Ibrogimov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.f.d. PhD.</p>	<p>9. Taqrizchilar:</p> <p>M.Isakov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.</p> <p>R.Ismatov – NamMQI, "Menejment" kafedrası dotsenti, i.f.n.</p>